**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.09.2020.FM.55.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ION-PLAZMA VA LAZER TEXNOLOGIYALARI INSTITUTI**

**SHERMATOVA FERUZA ABDURASHID QIZI**

# YORUG‘LIK DIODLARI BILAN OPTIK DAMLANADIGAN NEODIMLI LAZERLAR

**01.04.11 – Lazer fizikasi**

**Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**
**AVTOREFERATI**

**Urganch - 2025**

**UDK 535.3**

**Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical-mathematical sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) диссертации**

ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.09.2020.FM.55.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ION-PLAZMA VA LAZER TEXNOLOGIYALARI INSTITUTI

SHERMATOVA FERUZA ABDURASHID QIZI

# YORUG‘LIK DIODLARI BILAN OPTIK DAMLANADIGAN NEODIMLI LAZERLAR

**01.04.11 – Lazer fizikasi**

**Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI**

Urganch - 2025

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/FM1163 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Falsafa doktori dissertatsiyasi U.A.Arifov nomidagi Ion-plazma va lazer texnologiyalari institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.urdu.uz) hamda «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

| | |
|---|---|
| **Ilmiy rahbar:** | **Payziyev Shermaxamat Daliyevich**<br>fizika-matematika fanlari doktori, professor |
| **Rasmiy opponentlar:** | **Boltayev Ganjaboy Sapayevich**<br>fizika-matematika fanlari doktori, katta ilmiy xodim |
| | **Eshchanov Bahodir Xudayberganovich**<br>fizika-matematika fanlari doktori, professor |
| **Yetakchi tashkilot:** | **Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti** |

Dissertatsiya himoyasi Urganch davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.09.2020.FM.55.04 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «15» may soat 14^00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 220100, Urganch sh., H.Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (99862) 224-66-11, faks: (99862) 224-67-00.)

Dissertatsiya bilan Urganch davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (787 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 220100, Urganch sh., H. Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (99862) 224-66-11, faks: (99862) 224-67-00.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «7» 05 kuni tarqatildi.
(2025 yil «7» 05 dagi 5 raqamli reestr bayonnomasi).

**U.O. Kutliev,**
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi, fizika-matematika fanlari doktori, professor.

**K.R. Yakubov,**
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash kotibi, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent.

**U.K. Sapaev,**
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, fizika-matematika fanlari doktori, dotsent

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati**. Jahonda hozirgi kunda kamxarajat va samarali lazerlarni ishlab chiqish lazer fizikasi sohasidagi asosiy vazifalardan boʻlib qolmoqda, bu oʻz navbatida yangi optik damlash manbalari va unga mos faol muhitlar boʻyicha uzluksiz tadqiqotlarni talab qiladi. Soʻnggi yillarda yorugʻlik diodlarini ishlab chiqarishda, ayniqsa ularning chiqish quvvati va xarakteristikalari barqarorligini taʼminlash borasida katta yutuqlarga erishilgan boʻlib, shu nuqati nazaridan yangi turdagi yorugʻlik diodlari bilan optik damlanadigan lazerlar yaratish jahon hamjamiyati diqqat markazida turibdi. Yorugʻlik diodlari optik damlash manbasi sifatida bir qator afzalliklarga, jumladan, elektr quvvatini optik energiyaga aylantirishda yuqori samaradorlik, arzon narx, ixcham tuzilish va uzoq xizmat muddati ega. Shu bois hozirgi vaqtda yorugʻlik diodlaridan lazer muhitiga energiya uzatishning samarali mexanizmlarini oʻrganish ayniqsa dolzarb masalaga aylanib, ushbu yo’nalishda nazariy va amaliy tadqiqotlarni amalga oshirish muhim hisoblanmoqda.

Jahonda soʻnggi yillarda – AQSh, Fransiya va Xitoydagi bir qancha ixtisoslashtirilgan ilmiy markazlarda yorugʻlik diodlari bilan optik damlashga mos keluvchi turli lazer faol muhitlarining xususiyatlarini oʻrganish, yorugʻlik diodlari bilan optik damlanadigan lazerlar samaradorligini oshirish maqsadida yangi yondashuvlar, jumladan, yorugʻlik diodlarini energiyasini faol muhitga yetkazishda maxsus optik materiallar – lyuminessensiya konsentratorlaridan foydalanish, yorugʻlik diodlari nurida ishlaydigan lazerlarning yangi konfiguratsiyalarini ishlab chiqish ustida tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yoʻnalishda yorugʻlik diodlarining energiyasini faol mihitga samarali yetkazish, yorugʻlik diodlari nurlanish spektriga mos yutilish xusuiyatlariga ega faol muhitlarni tadqiq qilish, lazer muhitidagi faol ionlar oʻrtasidagi oʻzaro energiya oʻtkazish mexanizmlari, jumladan lazer energetik sathlaridagi oʻtishlarni oʻrganish va tahlil qilish ustuvor yoʻnalishlardan hisoblanadi. Shu bilan birga yorugʻlik diodi nurlanishini lazer nuriga aylantirish bilan bogʻliq fizik jarayonlarni chuqur tadqiq qilish, yorugʻlik diodlari bilan optik damlanadigan lazerlar simulyatsion modellarini ishlab chiqish orqali samarali lazer konfiguratsiyalarini aniqlash, ularni optimallashtirish va amaliyotga tatbiq qilish dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasida soʻnggi vaqtlarda energiyadan samarali foydalanishning yangi imkoniyatlarini oʻrganishga, ayniqsa, innovatsion energiya tejaydigan texnologiyalarini yaratish, energiyani konvertatsiya qilishning yangi imkoniyatlarini tadqiq qilish ilmiy masalalari bilan bir qatorda ilm-fan yutuqlariga asoslangan innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash va ragʻbatlantirish boʻyicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026 yillarga moʻljallangan Oʻzbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasida, jumladan «... yangi turdagi mahsulotlar va innovatsion texnologiyalar yaratishning gʻoyadan yakuniy isteʼmolchigacha boʻlgan kompleks tizimini taʼminlash orqali innovatsiyalarga boʻlgan talabni ragʻbatlantirish»[1] vazifalari

[1] Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 06.07.2022 yildagi PF-165-son

belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, yangi turdagi energiya va narx jihatidan samarali boʻlishi kutilayotgan yorugʻlik diodlari bilan optik damlanadigan lazerlarni yaratish bilan bogʻliq fizik jarayonlarni tadqiq qilish, yorugʻlik diodi energiyasini toʻgʻridan-toʻgʻri lazer energiyasiga aylantirishda samaradorlikni oshirish uchun faol muhitlar va ularga mos sensibilizatorlarni aniqlash, yorugʻlik diodi bilan optik damlanadigan lazerlar prototiplarini yaratish uchun lazer simulyatsiya modellarini ishlab chiqish muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-sonli "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida"gi[2], Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022 — 2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida"gi[3] farmonlarida va mazkur ilmiy faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublikadagi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi.** Ushbu ilmiy ish Oʻzbekiston Respublikasida ilmiy va texnologik rivojlanishning ustuvor yoʻnalishlariga, jumladan, PFI-2 "Energetika, energotejamkorlik va muqobil energiya manbalari: innovatsion energotejamkor texnika va texnologiyalar asosida energetika tarmogʻi samaradorligini oshirishning ilmiy muammolarini tadqiq etish"ga mos keladi.

**Muammoning oʻrganilganlik darajasi.** Mazkur mavzu boʻyicha bir qator muhim ilmiy tadqiqotlar turli xorijiy ilmiy markazlarda amalga oshirilgan, jumladan, lazer chiqish parametrlarini yaxshilash maqsadida yorugʻlik diodlari bilan optik damlanadigan turli lazer konfiguratsiyalarining samaradorliklari baholangan. Ushbu sohada muhim natijalar xorijlik olimlar, jumladan, AQSHdan (B.Villars, E.S.Hill, C.G.Durfee), Fransiyadan (A.Barbet, F.Balembois, F.Druon, P.Pichon, A.Paul, P.Georges va boshqalar), Koreyadan (K.Lee, H.C.Lee, J.Y.Cho, J.C.Lee, J.Yi), Xitoydan (J.Shen, S.Jiang, X.Huang, R.Jiang, P.Lu, S.Xu va boshqalar), Erondan (S.M.Zahedi, A.H.Farahbod, M.Mahmoudi) va boshqa tadqiqotchilar tomonidan qoʻlga kiritilgan.

Amerikalik olimlar Ce:Nd:YAG faol muhitidan foydalanib, koʻndalang optik damlash sxemasi yordamida maksimal 18 mJ lazer energiyasiga erishgan.

Fransuz olimlari tomonidan yorugʻlik diodlari bilan optik damlashning yangi konsepsiyasi – nurlanish chastotasi (toʻlqin uzunligi) oʻzgartiruvchilari sifatida lyuminessensiya konsentratorlaridan foydalanishni taklif qilingan. Bunday optik damlash sxemasining asosiy maqsadi yorugʻlik diodi nurlanishini maksimal darajada toʻplash va spektrning kengroq sohasini qamrab olish orqali fotonlarning yutilishini oshirishdir. Ushbu usul yordamida Ti:Sa, Nd:$YVO_4$, Cr:LiSAF kabi lazer kristallari oʻrganilgan.

J. Shen va hamkasblari eksperimental ravishda yorugʻlik diodi energiyasini Nd:YAG va Nd:shisha faol muhiti yordamida lazer nurlanish energiyasiga

[2] Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 29.10.2020 yildagi PF-6097-son
[3] Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son

konvertatsiya qilishda yuqori optik samaradorlikka erishgan, bu koʻrsatkich mos ravishda 8% va 10.9% ni tashkil qilgan.

Biroq, yorugʻlik diodi bilan optik damlashda neodim ionlari kiritilgan ittriy asosidagi matritsalardan farqli boshqa kristall strukturalari, shuningdek, sensibilizator ionli neodim kristallarining salohiyati oʻrganilmaganligicha qolmoqda. Yorugʻlik diodi bilan optik damlanadigan lazerlardagi soʻnggi yutuqlarga qaramay, ushbu tizimlarda raqobatbardosh quvvat darajasiga yoki yetarli konversiya samaradorligiga erishilganligi toʻgʻrisida maʼlumot keltirilmagan. Buni oʻz navbatida yorugʻlik diodi energiyasini faol muhitga oʻtkazishning samarali mexanizmlarini toʻliq oʻrganilmaganligi va lazer tizimlarini ishlab chiqishda yorugʻlik diodi nurlanishining oʻziga xos xususiyatlarini yetarlicha hisobga olinmaganligi bilan izohlash mumkin.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi qoshidagi Ion-plazma va lazer texnologiyalari institutining davlat byudjeti mavzusi “Turli usullar bilan uygʻotiluvchi lazerlarning yangi materiallar va texnologiyalarni qoʻllash asosida samaradorligini oshirish mexanizmlarini tadqiq qilish” (2021-2024) doirasida amalga oshirilgan.

**Tadqiqot maqsadi** toʻgʻridan-toʻgʻri optik damlash sharoitida yorugʻlik diodi energiyasini lazer nurlanishiga aylantirish samaradorligini cheklovchi asosiy omillarni aniqlash va neodimli lazer kristallari asosida yuqori samarali lazer qurilmalarini ishlab chiqish boʻyicha yechimlarni taklif qilishdan iborat.

**Tadqiqot vazifalari:**

- yorugʻlik diodlarining simulyatsion modellarini ishlab chiqish;
- lazer chiqish xarakteristikalarini tahlili uchun yorugʻlik diodi yordamida optik damlanadigan lazerlar simulyatsion modellarini ishlab chiqish;
- yorugʻlik diod nurlanishining faol muhitga samarali energiya oʻtkazish mexanizmlarini tadqiq qilish;
- yorugʻlik diod yordamida optik damlanadigan lazerlarda yutilish samaradorligini oshirish maqsadida muqobil matritsali neodim ionlari qoʻshilgan kristallarni oʻrganish;
- yorugʻlik diod nurlanish spektridagi siljishning lazer chiqish xarakteristikalariga taʼsirini oʻrganish;
- yorugʻlik diod yordamida optik damlanadigan lazer tizimlarida $Ce^{3+}$ sensibilizator ionlari kiritilgan neodimli kristalli imkoniyatlarini oʻrganish.

**Tadqiqot obʼyekti:** yorugʻlik diodlari, qattiq jism holatidagi neodimli lazer faol muhitlari, sensibilizatorlar va turli xil lazer kvantroni konfiguratsiyalari.

**Tadqiqot predmeti:** fotonlarning lazer faol muhiti, sensibilizator bilan oʻzaro taʼsiri fizik jarayonlari, foton yutilishi, lyuminessensiya, sensibilizator ionlaridan faol ionlarga energiya uzatish va  yorugʻlik diodlari yordamida turli faol muhitlarni optik damlashda lazer nurlanishi jarayonlari.

**Tadqiqot usullari.** Dissertatsiya ishida lazer tizimlarida faol muhit va yorugʻlik diod nurlanishining spektral xususiyatlari hisobga olingan holda fizik jarayonlarni simulyatsiya qilishga asoslangan usullardan foydalanilgan.

Simulyatsiya modellari Monte-Karlo foton yo‘lini kuzatish usuli asosida ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

yorug‘lik diodlarining nurlanish jarayonlarini modellashtirish uchun yorug‘lik diodi qurilmalarining texnik tavsifnomasidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri fazoviy va spektral parametrlarini hisobga olish imkonini beruvchi yangi yondashuv taklif etilgan;

ilk bor yorug‘lik diodlari bilan optik damlanadigan lazerlarning simulyatsiya modellari Monte-Karlo foton yo‘lini kuzatish usuli asosida ishlab chiqilgan;

yorug‘lik diodi bilan optik damlanadigan lazer tizimlarida egrilangan sirtli lazer kvantronlarining tekis sirtli kvantronlarga qaraganda yutilish va energiya uzatish samaradorligi 5-6% yuqori ekanligi modellashtirish natijalari asosida aniqlangan;

yorug‘lik diodi bilan optik damlanadigan lazer tizimlarida Nd:KGW lazer sterjeni Nd:YAG ga nisbatan yuqori salohiyatga ega ekanligi aniqlangan;

yorug‘lik diod nurlanishining temperaturaga bog‘liq spektral siljishi lazer faol muhitining yutilish xususiyatlariga ta’sir qilishi, xususan, 3-5 nm ga spektral siljish natijasida yutilish samaradorligining 5% dan ko‘proq qiymatga kamayishi aniqlangan;

ko‘k yorug‘lik diodlari bilan ko‘ndalang optik damlangan Ce:Nd:YAG lazer tizimi asosida 10% optik samaradorlikka va 30 W dan ortiq lazer chiqish quvvatiga erishish mumkinligi simulyatsiya natijalari asosida aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

yorug‘lik diodlarining nurlanish jarayonlarini modellashtirishda yangi yondashuv ishlab chiqilgan;

yorug‘lik diodlari bilan optik damlanadigan lazerlarning simulyatsiya modellari Monte-Karlo foton yo‘lini kuzatish usuli asosida ishlab chiqilgan;

yorug‘lik diodi bilan ko‘ndalang optik damlanadigan Nd:KGW lazer tizimlarida 31 W lazer chiqish quvvati va 10.3% optik samaradorlikka erishish mumkinligi asoslangan;

yorug‘lik diodi bilan ko‘ndalang optik damlanadigan Ce:Nd:YAG lazer tizimlarida 10% optik samaradorlik bilan 30 W dan ortiq lazer chiqish quvvatiga erishish imkoniyati asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** fotonikadagi zamonaviy usullar va yondashuvlardan foydalanganlik bilan tasdiqlanadi. Xulosalar lazer muhitidagi asosiy jarayonlarning fizik mexanizmlari bo‘yicha fundamental nazariy tadqiqotlarga asoslangan va boshqa tadqiqotchilarning xulosalariga to‘liq mos keladi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati yorug‘lik diodi bilan optik damlanadigan lazerlar uchun taklif etilgan faol muhitlari (Nd:KGW, Ce:Nd:YAG) va lazer kvantron konfiguratsiyalari yorug‘lik diodlari bilan optik damlanadigan lazerlar samaradorligini sezilarli darajada oshirish imkonini berishi, shuningdek, yorug‘lik diodi yordamida optik damlanadigan lazerlarning ishlab chiqilgan modellari nazariy tadqiqotlar uchun qo‘llanilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati taklif etilgan ilmiy va texnik yechimlar yorug‘lik diodi energiyasini lazer energiyasiga aylantirish bilan bog‘liq yangi samarali texnologiyalarni ishlab chiqishda qo‘llanilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Yorug‘lik diodi yordamida optik damlanadigan Nd:YAG, Ce:Nd:YAG va Nd:KGW lazer faol muhitlarida yutilish, issiqlik xususiyatlari va lazer nurlanish xarakteristikalarini o‘rganish bo‘yicha olingan natijalar quyidagi ilmiy-tadqiqot loyihalariga tatbiq etilgan:

uglerod nanotrubkalari kompyuter modelini yaratish uchun U.A. Arifov nomidagi Ion-plazma va lazer texnologiyalari institutida olib borilgan “Uglerodli nanostrukturalardan atomlarning sochilishi, adsorbsiyasi va inkapsulyatsiyasi jarayonlarini modellashtirish va sferik fullerenlardan elektronlarning elastik sochilishini nazariy tadqiq etish” byudjet mavzusidagi fundamental tadqiqotlarda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2024 yil 17 dekabrdagi 2/1255-2798-sonli ma’lumotnomasi). Olingan natijalardan foydalanish uglerodli nanotrubkalarda atomlarning sochilishida temperatura ta’sirini baholash imkonini bergan;

ilk bor bir xil bo‘lmagan domen tuzilmali kristallarda uchinchi garmonik avlodni amalga oshirishda domenlar ketma-ketligini optimallashtirish uchun Monte-Karlo usuliga asoslanib ishlab chiqilgan algoritmlar Toshkent davlat texnika universitetida olib borilgan “Nochiziqli foton kristallarda femtosekund davomiylikdagi lazer impulslarining parametrik ta’siri natijasida – ko‘p rangli o‘ta qisqa lazer impulslarining manbaini olish usullarini yaratish” mavzusidagi Uzb-Ind-2021-96 loyihasida foydalanilgan (Toshkent davlat texnika universitetining 2024-yil 11-oktabrdagi 01/9-14-1717-sonli ma’lumotnomasi). Natijalarning qo‘llanilishi chiziqli bo‘lmagan fotonik kristallarda qisqa lazer impulslarini parametrik kuchaytirish bo‘yicha muhim ma’lumotlarni taqdim etgan bo‘lib, bu o‘z navbatida innovatsion optimallashtirish usullarini ishlab chiqish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 8 ta xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Natijalar 14 ta ilmiy nashrda, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan dissertatsiya asosiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan jurnallarda 5 ta maqola chop etilgan va 1 ta dasturiy mahsulot ro‘yxatga olingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to‘rt bob, xulosa, adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat bo‘lib, jumladan, 43 ta rasm va 6 ta jadvalni o‘z ichiga oladi. Asosiy matn 104 sahifada keltirilgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va ahamiyati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari shakllantirilgan, tadqiqot ob'yekti, predmeti va metodlari, shuningdek dissertatsiya tadqiqotining respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari bilan muvofiqligi keltirilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, natijalarning joriy etilishi, aprobatsiyasi, shuningdek dissertatsiya hajmi va tuzilishi to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"Yorug'lik diodi bilan optik damlanadigan lazerlarning hozirgi holati"** deb nomlangan **birinchi bobida** yorug'lik diodi bilan optik damlashning joriy holati to'g'risidagi adabiyotlar tahlili, shuningdek, yorug'lik diodlarning optik damlash jarayoniga bevosita ta'sir qiluvchi asosiy parametrlari va xususiyatlariga qisqacha tavsif berilgan. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, so'nggi to'rt o'n yillikda yorug'lik diodlarining uzluksiz quvvati sezilarli darajada yaxshilanib, ikki-uch darajaga ko'tarilgan. Biroq shunga qaramay, yorug'lik diodi yordamida optik damlash quvvati odatda o'nlab kW/sm² diapazonida nurlanishga erishadigan lazer diodlaridan orqada qolmoqda.

Yorug'lik diodi bilan optik damlash ustida izlanayotgan laboratoriyalar soni kam bo'lgani sababli yorug'lik diodiga asoslangan optik damlash nisbatan tor ixtisoslik sohasi bo'lib qolmoqda. Bunday tor qamrov ushbu sohada tadqiqot olib borish imkoniyatlari bilan bir qatorda kengaytirilgan izlanishlar zaruratini ham ta'kidlaydi. Yorug'lik diodlarining lambertian nurlanish manbalari bo'lganligi sababli energiyani qattiq jism faol muhitga samaraliroq uzatishda ko'ndalang optik damlash sxemalari afzalroq hisoblanadi. Optik damlashda yuqori darajadagi chiqish quvvatiga erishish uchun yorug'lik diodlari asosan impuls (kvazi-uzluksiz) rejimida qo'llanilmoqda. Bunday rejim optik manba nurlanish quvvatini qisqa vaqt oralig'ida sezilarli darajada oshirish imkonini beradi va shu bilan birga lazer sterjenidagi qizish muammolarini kamaytirishga yordam beradi. Biroq, bu shuningdek, yorug'lik diodi nurlanishining spektral siljishiga olib kelishi mumkin bo'lib, bu esa o'z navbatida yorug'likning faol muhitda yutilish xususiyatlariga ta'sir qilishi mumkin.

Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda shuni xulosa qilish mumkinki, yorug'lik diodiga asoslangan optik damlash lazerlarini ishlab chiqish hali ham dastlabki rivojlanish bosqichida bo'lib, innovatsion yechim talab qilinadigan bir qator muammolar mavjud. Yorug'lik diodiga asoslangan damlash lazerlarining hozirgi holatini tahlil qilish asosida dissertatsiya ishining asosiy vazifalari belgilangan.

**Ikkinchi bob "Yorug'lik diodi bilan optik damlanadigan lazerlarda fizik jarayonlarni modellashtirish"** deb nomlanib, yorug'lik diodi bilan optik damlanadigan lazer modellarini MATLAB®, dasturlash va raqamli hisoblash platformasida Monte-Karlo fotonlarini kuzatish usuli yordamida ishlab chiqish jarayoniga bag'ishlangan. Yorug'lik diodlari nurlanishini modellashtirish jarayonida ularning spektral va fazoviy xususiyatlarini texnik tavsifidan to'g'ridan-to'g'ri hisobga olish imkonini beruvchi yangi usul taklif qilingan. Ushbu usul qurilmalardagi ikkilamchi optik elementlaridagi jarayonlarni modellashtirish zaruratini bartaraf qilinishi evaziga simulyatsiya jarayonini yengillashtirilishi bilan bir qatorda yuqori aniqlikni ham ta’minlaydi. Shuningdek, tanlangan modellashtirish usuli doirasida yorug‘lik diodlaridan chiqqan fotonlarning moddalar bilan o‘zaro ta’siri – optik damlash, yorug‘lik yutilishi, qaytishi, sinishi va hokazo optik jarayonlarda ko‘rib chiqilgan. Yorug‘lik diodlari bilan optik damlashda tanlangan modellashtirish usulining afzalliklari va kamchiliklari muhokama qilingan: Monte-Karlo fotonlarni kuzatish usuli yorug‘lik diodlari kabi murakkab yorug‘lik manbalari nurlanishi bilan bog‘liq fizik jarayonlarini modellashtirishga yaxshi mos keladi. Shuningdek, ushbu bobda yorug‘lik diodi yordamida optik damlangan lazerlarning chiqish quvvatini hisoblashda qo‘llanilgan fazoga bog‘liq tezlik tenglamalari keltirilgan. Ushbu tenglamalar tanlovi lazer kristallar ichida yorug‘lik diodlari nurlanishi yutilishining notekis taqsimoti bilan asoslanadi.

**Uchinchi “Yorug‘lik diodi yordamida optik damlanadigan Nd:YAG va Nd:KGW lazerlar” bob**da yorug‘lik diodi yordamida optik damlanadigan Nd:KGW lazeri uchun simulyatsiya usuli orqali olingan tadqiqot natijalari keltirilgan. Hozirgi kungacha ma’lum yorug‘lik diodi yordamida optik damlash orqali lazer nurlanishini olish bo‘yicha eksperimental ishlarning aksariyat qismi qismi Nd:YAG kristalida amalga oshirilgan. Neodim ionlarining boshqa host-matritsalar bilan yorug‘lik diodi yordamida optik damlash istiqbollari hali yetarlicha o‘rganilmagan. Neodim uchun alternativ host-matritsalardan biri KGW (kaliy-gadoliniy-volframat) bo‘lib, ushbu kristall struktura asosidagi faol muhit yorug‘lik diodlari bilan optik damlashda keng o‘rganilgan Nd:YAG va Nd:$YVO_4$ kabi lazer kristallariga nisbatan yuqori nurlanish ko‘ndalang kesimiga ega va 808 nm to‘lqin uzunligida keng yutilish sohasi mavjudligi bilan ajralib turadi.




**1-rasm.** Optik damlash kamerasining umumiy (a) va ko‘ndalang (b) ko‘rinishlari texnik parametrlari bilan birga (c).

Nd:KGWning yorug‘lik diodi bilan optik damlashning potensialini to‘liq baholash maqsadida Nd:KGW va Nd:YAG lazerlari bo‘yicha qiyosiy tadqiqot o‘tkazilgan. Ushbu tadqiqotda, Nd:KGW va Nd:YAG lazerlari bir xil optik damlash sharoitlarini ta’minlash uchun yaqinda eksperimental tadqiqotda Nd:YAG lazerini yorug‘lik diodi bilan optik damlashda foydalanilgan “besh yo‘nalishli optik damlash moduli” kvantroni asosida lazer simulyatsiya modellari ishlab chiqildi (1-rasm).

Simulyatsiya modelidan olingan ma’lumotlar asosida Nd:KGW ning yutilish samaradorligi Nd:YAG dan sezilarli darajada yuqori ekanligi aniqlandi. 2-rasmda keltirilgan yutilish taqsimotlari va rangli ustun optik damlash samaradorligini, yutilgan quvvat taqsimotining bir jinsli yoki emasligini vizual baholash imkonini




**2-rasm.** Yutilish taqsimotlari.

beradi. Ushbu taqsimotlar har bir yorug‘lik diodidan chiqarilgan 10 million foton statistikasi asosida hisoblangan, va rangli ustundagi qiymatlar har bir hajmiy birlikda yutilgan fotonlar soniga mos keladi (lazer kristalli x, y va z o‘qlari bo‘ylab 50×50×200 birlik elementiga bo‘lingan).

Umuman olganda, Nd:KGW dagi faol neodim ionlari yuqori konsentratsiyasi va yorug‘lik diodlari nurlanishi va Nd:KGW ning yutilish spektri bilan ko‘proq mos kelishi sababli bu natijalar namoyon bo‘lishi kutilgan edi. Modellashtirish yordamida baholangan yutilish samaradorligi yutilgan fotonlar foizidan kelib chiqqan holda Nd:KGW (66.2%) ning Nd:YAG (37.1%) dan ustunligini ko‘rsatdi (host-matritsalardagi neodim ionlari konsentratsiyasi mos ravishda 3% va 1% bo‘lganda). Undan keyin 3% Nd:KGW va 1% Nd:YAG lazerlarining chiqish parametrlarining qiyosiy tahlili o‘tkazildi (3-rasm).

Nd:KGW yuqori yutilish samaradorligi tufayli Nd:YAG ni ortda qoldirib, yuqori differensial samaradorlikni ko‘rsatdi (mos ravishda 17.9% va 12.1%). Nd:KGW xususiyatlariga, xususan, qisqaroq fluoressensiya vaqti va past kvant samaradorligiga mos ravishda, uning bo‘sag‘a quvvati yuqoriroq chiqqan, ammo bu qiymat Nd:YAG ga yaqin bo‘lib qolmoqda, bu esa Nd:KGW asosida yorug‘lik diodi yordamida optik damlanadigan yuqori quvvatli lazer yaratish imkoniyatini ko‘rsatadi.




**3-rasm.** Chiqish va kirish quvvati bog‘liqliklari (Nd:KGW vs Nd:YAG).

Ta’kidlash lozimki, keltirilgan chiqish quvvat-kirish quvvati bog‘liqliklari (3-rasm) lazer tizimlari uchun optimal sovutish sharoitlari farazida olingan. Amalda, ilmiy adabiyotlarda qayd etilishicha, KGW matritsasining past issiqlik o‘tkazuvchanligi va anizotropik xususiyatlari lazer qurilmalarida barqaror ish faoliyatini va yuqori samaradorlikni ta’minlash uchun samarali issiqlik tarqatish talab etiladigan holatlarda jiddiy muammo hisoblanadi. Yorug‘lik diodi yordamida optik damlanadigan lazer tizimlarida faol muhitda issiqlik to‘planishi termik linzalanishga olib kelishi mumkin, bunda temperatura gradiyenti kristallda sinish ko‘rsatkichining o‘zgarishiga sabab bo‘ladi. Bu hodisa chiqishdagi lazer dastasiga ta’sir qilishi va umumiy tizim samaradorligini pasaytirishi mumkin. Boshqa optik manbalar yordamida optik damlangan Nd:KGW lazerni o‘rganish bo‘yicha dastlabki tadqiqotlarda ushbu kristalldan foydalanishdagi asosiy cheklov sifatida aynan termal effektlar ko‘rsatilgan. Shu o‘rinda muhim savol tug‘iladi: yorug‘lik diodi yordamida optik damlashda olingan chiqish quvvati natijalariga termal yuklanish hisobi sezilarli ta’sir qiladimi? Buni o‘rganish uchun birinchi qadam sifatida Nd:YAG va Nd:KGW lazer sterjenlarining tegishli fizik xususiyatlari va simulyatsion model natijalari inobatga olingan holda faol muhitlarning turli optik damlash quvvatlaridagi temperatura taqsimoti issiqlik o‘tkazuvchanlik tenglamasi asosida hisoblab chiqildi (4-rasm).




**4-rasm.** Temperatura taqsimoti.

Nd:YAG da 300 va 600W optik damlash quvvatlarida minimal qizish kuzatildi va kristall markazi va chetki qismlari orasidagi temperatura farqi 5 darajadan yuqori bo‘lmasligi aniqlandi. Aksincha, Nd: KGW lazer muhitida sezilarli o‘zgarish kuzatilgan, 600 W yuqori quvvatida temperaturaning 90 darajaga ko‘tarilishi bilan bir qatorda taxminan 30 darajali temperatura gradiyenti (markaz va chekka qismlar o‘rtasidagi farq) kuzatilgan. Sovutish suyuqligining oqim tezligini oshirish, ayniqsa foydalanilgan ko‘ndalang optik damlash sxemasi bu gradiyentni kamaytirishi mumkin. Bundan tashqari, bugungi kunda yorug‘lik diodi yordamida optik damlanadigan lazerlar ko‘pchiligida yorug‘lik diodlari optik quvvatini oshirish uchun mo‘ljallangan impulsli optik damlash (kvazi-uzluksiz optik damlash rejimi) dan foydalaniladi, bu esa faol muhitdagi issiqlik muammolarini birmuncha kamaytiradi. Shuning uchun, ilgari qo‘yilgan savolga javoban, termal omillar 3-rasmda keltirilgan yorug‘lik diodi yordamida optik damlash tizimlarida Nd:KGW ning Nd:YAG ga nisbatan ustunligini namoyish qiluvchi natijalarga ta’sir qilmasligi kerak.

Dissertatsiyaning **“Yorug‘lik diodi bilan optik damlanadigan Ce:Nd:YAG lazeri simulyatsion modeli”** nomli **to‘rtinchi bobida** yorug‘lik diodi nurlanish energiyasini faol muhitga samarali tarzda o‘tkazish mexanizmlari yangi taklif etilgan tekis sirtli va egrilangan sirtli lazer kvantronlari parametrlarini optimallashtirish asosida ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, yorug‘lik diodi bilan nurlantirilgan lazer tizimlari uchun sensibilizator ionlari qo‘shilgan neodim kristallari imkoniyatlari Ce:Nd:YAG misolida o‘rganilgan. Bundan tashqari, bu bobda yorug‘lik diodi nurlanishining temperaturaga bog‘liq spektral siljishining faol muhitning yutilish xususiyatlariga ta’siri simulyatsion usullar yordamida o‘rganilgan.




**5-rasm.** Modellashtirilgan Ce:Nd:YAG lazer tizimining umumiy ko‘rinishi.

Ce:Nd:YAG lazer kristallining yorug‘lik diodi yordamida optik damlashdagi imkoniyatlari avvalgi bir nechta eksperimental tadqiqotlarda ko‘rib chiqilgan. Boshlang‘ich nuqta sifatida ushbu tadqiqotlardan birini qo‘llash orqali Ce:Nd:YAG lazer tizimining dastlabki simulyatsion modeli ishlab chiqilgan (5-rasm). Ushbu eksperimental tadqiqotda turli diametrli (3 mm va 6 mm) Ce:Nd:YAG lazer sterjenlarida lazer chiqish parametrlari ko‘ndalang optik damlash sxemasida taqqoslangan: 12.8%li maksimal differensial samaradorlik 6 mm diametrli Ce:Nd:YAG lazer sterjenida erishilgan.

Yorug‘lik diodlari texnologiyalaridagi sezilarli yutuqlarga qaramay, ularning past chiqish quvvati yorug‘lik diodi yordamida optik damlanadigan lazerlarni ishlab chiqishda jiddiy muammo bo‘lib qolmoqda. Texnik jihatdan, yorug‘lik diodini ma’lum vaqt intervalida ishga tushirish, ya’ni kvaz-iuzluksiz (QCW) deb nomlanuvchi optik damlash rejimini kiritish orqali lazer tizimlarida bo‘sag‘a quvvatiga yetarli yuqori chiqish quvvatiga erishish mumkin. Biroq uzluksiz (CW) rejim bilan solishtirganda, QCW rejimi qo‘shimcha muammolarni keltirib chiqaradi, masalan, yuqori tok oqimi va kuchlanishlar yorug‘lik diodidagi temperaturaning ko‘tarilishiga sabab bo‘ladi. Ushbu temperaturaviy ta’sirlar optik damlash manbai nurlanishining spektral siljishiga olib kelishi mumkin. Spektral siljish o‘z navbatida yorug‘lik diodi nurlanish spektri va faol muhitning yutilish spektri o‘rtasidagi ustma-ust tushuvchanlikni o‘zgartirishi mumkin. Shu sababli, dissertatsiya doirasida yorug‘lik diodi nurlanishi spektral siljishining lazer nurining chiqish xususiyatlariga ta’sirini o‘rganish vazifasi qo‘yilgan edi. Bundan tashqari spektral siljishning ta’sirini o‘rganish uchun turli temperaturada o‘lchangan ko‘k yorug‘lik diodi nurlanish spektrlari o‘rganilgan eksperimental ish natijalaridan foydalanilgan. Ushbu nurlanish spektrlari raqamli ravishda qayta ishlanib (6-rasm), yorug‘lik diodi bilan optik damlanadigan lazerning validatsiyalagan simulyatsion modeli (5-rasm)ga kiritildi. Optik damlash xususiyatlarini asosan ikki asosiy parametr bilan baholash mumkin: optik damlash samaradorligi va yutilish taqsimoti. Bu omillar lazerning samaradorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Dastlab simulyatsion model yordamida yorug‘lik diodi nurlanishining




**6-rasm.** Turli temeperatura uchun ko‘k yorug‘lik diodlarining raqamli qayta ishlangan eksperimental nurlanish spektrlari.

spektral siljishi qayd qilingan har bir temperatura ko‘rsatkichi uchun bir xil optik damlash sharoitlarida va bir xil foton statistikasida optik damlash samaradorliklari aniqlandi.

Yorug‘lik diodidagi turli temperaturalar tufayli yuzaga keladigan optik damlash (yutilish) samaradorliklari orasidagi maksimal tafovut T=13 K va T=250 K uchun 5.4% ni tashkil etdi. Qolgan 13–300 K temperatura oralig‘i uchun modellashtirish natijalariga asoslanib hisoblangan fotonlarning yutilish samaradorligi 0.388–0.41 sohasida bo‘ldi (7-rasm). Keyin har bir temperatura uchun yorug‘lik diodi nurlanishining eksperimental olingan optik spektrlari asosida yutilish taqsimotlari aniqlandi. 8-rasmda to‘rtta qayd qilingan temperatura ko‘rsatkichi uchun yutilish taqsimotlarining umumiy ko‘rinishi va o‘zgarish darajasi keltirilgan. Past temperaturalarda faol muhitda yutilishning aniqroq sohalari kuzatilganini ta’kidlash mumkin. Lazer kristalli ichidagi umumiy yutilish sohalari o‘zgarmagan bo‘lsa-da, yorug‘lik diodining ishchi temperaturasi oshishi bilan yutilish xususiyatlarining sezilarli susayib borish qonuniyatlari kuzatilgan.




**7-rasm.** Yutilish samaradorligining yorug‘lik diodidagi temperaturaga bog‘liqligi.




**8-rasm.** Yorug‘lik diodining 13-300 K ishchi temperaturasi oralig‘i uchun faol muhitda foton yutilishining taqsimoti.

Simulyatsiya modeli va eksperimental natijalar orasidagi muvofiqlikka erishilgandan so‘ng, Ce:Nd:YAG asosidagi lazer tizimini optimallashtirish lazer kvantroni konstruksiyalarini o‘zgartirish orqali amalga oshirildi. Lazer kvantronining to‘rt xil turi uchun simulyatsiya modellari ishlab chiqildi: trapezoidal ko‘p qirralik, geksagonal ko‘p qirralik, parabolik silindr va qo‘shaloq parabolik silindr (9-rasm).




**9-rasm.** Taklif qilinayotgan lazer kvantronlarining umumiy ko‘rinishi: a) trapezoidal ko‘p qirralik; b) geksagonal ko‘p qirralik; c) parabolik silindr; d) qo‘shaloq parabolik silindr.

Yutilishning nisbatan bir jinsli taqsimotiga erishish maqsadida, ko‘rib chiqilgan eksperimental ishda lazer sterjeni optik o‘qi bo‘ylab qarama-qarshi tomonlarga joylashtirilgan ikkita yorug‘lik diodi ishlatilgan. Ushbu yondashuvga amal qilgan holda, lazer kvantronining yangi konstruksiyalarini modellashtirish jarayonida har bir konfiguratsiyani ikkita bir xil yorug'lik diodidan iborat blok va bitta lazer sterjenidan iborat bir butun tizim sifatida ko'rib chiqildi: sterjen diametri 5 mm, har bir blok uzunligi 25 mm. Ikki blokli tizimning umumiy uzunligi 50 mm tashkil etadi. Lazer kvantronining tahlilini soddalashtirish uchun dastlab har bir taklif qilinayotgan konfiguratsiyada faqat bitta blokni optimallashtirish natijasida yutilish samaradorligini maksimal oshirish nuqtai nazaridan o'rganib chiqildi. Bunda har bir konfiguratsiya uchun ikkita asosiy parameter tanlab olinib, ularning real amalga oshirilishi mumkin bo'lgan parametrlari sohasi aniqlandi. Ishlab chiqilgan simulyatsion modellar yordamida ushbu parametrlar oralig'i o'rganilib, lazer kvantronining har bir konstruksiyasi uchun optimal parametrlar aniqlandi.




**10-rasm.** Trapezoidal lazer kvantroni uchun parametrlarni optimallashtirish asosida yutilish samaradorligini baholash.

Trapezoidal kvantronning samaradorligini baholash uchun ikkita asosiy parametr sifatida l (6 mm dan 20 mm gacha, qadam: 1 mm) va h (10 mm dan 50 mm gacha, qadam: 1 mm) tanlandi. Bu yerda l — lazer kristalligacha bo'lgan masofa (uning diametri hisobga olingan holda), h esa 10-rasmda ko'rsatilganidek trapetsiyaning kichik asosidan kristallgacha bo'lgan masofa. h va l parametrlarining ikki o'lchamli funksiyasi sifatida keltirilgan yutilish samaradorligi qiymatlari shuni ko'rsatdiki, 0.57 teng maksimal samaradorlikka h = 10 mm va l = 6 mm bo'lganda erishish mumkin.




**11-rasm.** Geksagonal lazer kvantroni uchun parametrlarni optimallashtirish asosida yutilish samaradorligini baholash.

Geksagonal lazer kvantronining imkoniyatlari esa $\alpha$ ($0° \leq \alpha \leq 45°$, qadam: 1°) va h ($10$ mm $\leq h \leq 60$ mm, qadam: 1 mm) parametrlarini hisobga olgan holda baholandi. Bu yerda $\alpha$ 11-rasmda ko'rsatilganidek, yon devor tekisligi va yorug'lik diodi matritsasi o'rnatilgan devor orasidagi ikki yoqli burchak, h esa kristalldan yorug'lik diodi matritsasi joylashgan yuzaga parallel kichik asos devorigacha bo'lgan masofa. Ushbu konstruksiyaga ikki yoqli burchakni kiritishning asosiy maqsadi — yorug'lik diodining nurlanish yo'nalganlik qonuniyatlarini hisobga olish va lazer sterjeniga energiya uzatilishini samaradorligini oshirish edi. Simulyatsiya tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, $\eta_a = 0.54$ maksimal yutilish samaradorligiga $\alpha = 32°$ va h = 10 mm bo'lganda erishsa bo'ladi.

Tekis sirtli konstruksiyalariga alternativa sifatida optik damlash kamerasi uchun egrilangan sirtli – parabolik konfiguratsiyalar tadqiq qilindi. Parabolik silindr shaklidagi konstruksiyaning optimallashtiriladigan asosiy parametrlari sifatida parabola fokal parametri p (3 dan 11 gacha, qadam: 0.2), va l (6 mm dan 20 mm gacha, qadam: 1 mm) tanlandi, bu yerda l — lazer kristallgacha diametri inobatga olingan holda bo‘lgan masofa (12-rasm). Optimallashtirish natijalari shuni ko‘rsatdiki, ushbu konstruksiya uchun 0.64 maksimal yutilish samaradorligi l = 6 mm va p = 11 da erishiladi. Samaradorlik xaritasidan ko‘rinib turibdiki, samaradorlik 0.6 dan oshishi uchun l masofa 9 mm dan oshmasligi lozim. Bundan tashqari, simulyatsiyalar yana bir bor yorug‘lik diodi matritsasi va lazer kristalli orasidagi masofani minimal darajada bo‘lishi kerakligini tasdiqladi.




**12-rasm.** Parabolik silindr shaklidagi lazer kvantroni uchun parametrlarni optimallashtirish asosida yutilish samaradorligini baholash.

Keyingi konfiguratsiya — qo‘shaloq parabolik silindr shaklidagi lazer kvantonining konstruksiyasi ikkita bir xil parabolik silindrni (y o‘qi bo‘ylab -9.5 mm dan 9.5 mm gacha) o‘z ichiga oladi, ular x o‘qiga nisbatan simmetrik joylashgan bo‘lib bir xil masofaga shunday surilganki, y o‘qi bo‘ylab konstruksiya uzunligi 25 mm ni tashlik qiladi. Konfiguratsiyaning ko‘ndalang kesimi va simulyatsiya modeliga kiritilgan o‘lchamlarning tavsifi grafik tarzda 13-rasmda keltirilgan. E’tiborlisi, parabola shoxlari orasidagi optimal masofa 19 mm ham simulyatsiya natijalariga asoslangan holda tanlangan. Ushbu konfiguratsiyaning imkoniyatlari lazer sterjen va yorug‘lik diod matritsasi orasidagi masofani l (6 mm≤ l ≤ 18 mm, qadam: 1 mm) va parabolik parametrini (1.5 ≤ p ≤ 3.2, qadam: 0,1) o‘zgartirish orqali baholandi.Olingan samaradorlik taqsimotiga ko‘ra, ushbu konstruksiya uchun maksimal samaradorlik 0.66 ga teng bo‘lib, l = 11 mm va p = 3.2 da erishiladi. Umuman olganda, samaradorlikni 0.6 dan yuqori darajada ushlab turish uchun l ning optimal diapazoni [10, 14], p ning optimal diapazoni esa [2.6, 3.2]ni tashkil qildi.




**13-rasm.** Qo‘shaloq parabolik silindr shaklidagi lazer kvantroni uchun parametrlarni optimallashtirish asosida yutilish samaradorligini baholash.

Yuqori sifatli lazer chiqish nurlanishini olishda faol element ichidagi nurlanish (yutilish) taqsimoti ham muhim omil hisoblanadi. Har bir optimallashtirilgan lazer kvantronining yutilish taqsimoti ularning natijaviy ko‘ndalang kesim profillari bilan birga 14-rasmda keltirilgan.



**14-rasm.** Optik damlash taqsimoti va mos ko‘ndalang kesim profillari: a) trapezoidal ko‘p qirralik; b) geksagonal ko‘p qirralik; c) parabolik silindr; d) qo‘shaloq parabolik silindr.

Olingan 3D yutilish taqsimotlari va ko‘ndalang kesim profillari ikki asosiy o‘ziga xos xususiyatni ko‘rsatdi: birinchidan, rangli ustunda aks ettirilgan ma’lumotlarga ko‘ra eng yuqori samaradorlik qo‘shaloq parabolik silindrda erishiladi (14d-rasm), eng past samaradorlik esa geksagonal ko‘p qirralikda kuzatiladi (14b-rasm); ikkinchidan, taqsimotlarning nisbiy bir jinsliligi va simmetriyasi ikki blokli konfiguratsiya va lazer kvantronlarining shakli bilan bog‘liq. Yutilgan nurlanishlarning asosiy qismi faol muhitning markaziy qismida to‘plangan, bu esa rezonator modasi va yutilish taqsimoti orasidagi yaxshi moslikni ta’minlaydi, natijada yuqori sifatli lazer dastasining hosil bo‘lishiga imkon beradi. Hozirgi vaqtga kelib, optik damlash kameralarning ichki devorlaridan maksimal qaytarish koeffitsiyenti 0.95 ga yetgan. Bu qiymatni simulyatsion modellarga kiritish orqali har bir lazer kvantron konfiguratsiyasi uchun yakuniy samaradorlik ko‘rsatkichlari olindi (1-jadval).

**Jadval 1. Optimizatsiya natijalari**

| **Lazer kvantron shakli** | **Optimal o‘lcham** | **Uzatish samaradorligi** | **Yutilish samaradorligi** |
|---|---|---|---|
| Trapezoidal ko‘p qirralik | l = 6 mm; h = 10 mm | $\eta_t$= 0.726±0.002 | $\eta_a$ = 0.641±0.002 |
| Geksagonal ko‘p qirralik | α = 32 °; h = 10 mm | $\eta_t$ = 0.703±0.002 | $\eta_a$ = 0.615±0.002 |
| Parabolik silindr | p = 11; l = 6 mm | $\eta_t$ = 0.783±0.002 | $\eta_a$ = 0.701±0.002 |
| Qo‘shaloq parabolik silindr | p = 3.2; l = 11 mm | $\eta_t$ = 0.788±0.002 | $\eta_a$ = 0.717±0.002 |

Bunda yorug‘lik diodi nurlanishining lazer sterjeniga uzatish samaradorligining eng yuqori 79% qiymati qo‘shaloq parabolik silindr kvantroni uchun olindi. Har bir yorug‘lik diodi ikkita blokdan iborat lazer tizimida 150 W quvvat (umumiy quvvat 300 W) taqdim eta olishi hisobi hamda rezonator va lazer sterjenining parametrlari (rezonator uzunligi: 12 sm, ichki yo‘qotishlar: 0,003 sm$^{-1}$, sterjen diametri: 5 mm sterjen uzunligi: 50 mm) ni inobatga olgan holda fazoviy bog‘liq tezlik tenglamalari asosida lazerning chiqish-kirish quvvat bog‘liqliklari olingan (15-rasm).Lazer sterjenining diametri lazerning ishlashiga qanday ta’sir qilishini o‘rganish maqsadida diametri 3 mm dan 7 mm gacha bo‘lgan sterjenlar ko‘rib chiqildi. Shu o‘rinda aytish joizki, har bir sterjen diametri uchun asosiy parametrlarning optimal qiymatlari alohida aniqlanishi kerak, ya’ni 4 mm diametrli sterjen uchun aniqlangan optimal lazer kvantron parametrlari 5 mm diametrli sterjen uchun mos kelmaydi. Shu sababli, biz faqat energiya uzatish samaradorligi eng yuqori bo‘lgan lazer kvantroni uchun, ya’ni qo‘shaloq parabolik silindr shaklidagi konfiguratsiya uchun lazer sterjenining optimal o‘lchamlari tadqiq qilindi. Dastlab, tanlangan konfiguratsiyaning har bir lazer sterjen diametri uchun optimal parametrlari aniqlandi va olingan ma’lumotlarga asoslanib natijaviy lazer chiqish quvvatlari solishtirildi (16-rasm). Simulyatsiyalar shuni ko‘rsatadiki, maksimal chiqish quvvati lazer sterjeni diametri 4 mm dan 5 mm gacha bo‘lgan oralig‘ida erishiladi. Ushbu diapazondan tashqarida lazerning chiqish quvvatlari pasayadi.




**15-rasm.** Optimallashtirilgan konfiguratsiyalar uchun kirish-chiqish quvvati munosabatlari.




**16-rasm.** Turli lazer sterjen diametrlari uchun lazer chiqish quvvatlari.

Simulyatsiya va hisoblash natijalari taklif etilgan konfiguratsiyalarni o‘z ichiga olgan yorug‘lik diodi lazer tizimlari boshqa optik damlanadigan lazerlar bilan qaysidir ma’noda raqobatbardosh samaradorlikka erishishi mumkinligini ko‘rsatdi. Chiqish-kirish quvvatlari bog‘liqliklari qo‘shaloq parabolik silindr konfiguratsiyasida lazer samaradorligining ko‘rib chiqilgan boshqa kvantronlarnikiga nisbatan yuqoriligini namoyish etdi va 30 W (optik samaradorlik 10%) chiqish quvvatiga erishish imkoniyatini ko‘rsatdi, bunda bo‘sag‘a optik damlash quvvati 120 W dan past bo‘lgan.

Samaradorlik nuqtai nazaridan yorug‘lik diodi lazerlar bugungi kunda lampa bilan optik damlanadigan lazerlar (juda keng polosali nurlanish spektriga ega) va diod bilan optik damlanadigan lazerlar (tor polosali nurlanish spektriga ega) o‘rtasida joylashgan. Ko‘rsatilgan 10% samaradorlik natijasi ma’lumot keltirilgan eksperimental ishda erishilgan natijalarni (optik samaradorlik ~ 6.3%) sezilarli darajada yaxshilaydi. Lampa bilan optik damlanadigan lazerlar (samaradorlik 5% gacha) bilan taqqoslaganda, bizning natijalarimiz ancha yuqori. Diod bilan optik damlanadigan lazerlar 80% gacha bo‘lgan optik samaradorlikka erisha olsa ham, yorug‘lik diodlari lazer diodlari bilan taqqoslaganda xarakteristikalar barqarorligi borasida ma’lum afzalliklarga ega.

# XULOSA

Mazkur dissertatsiya doirasida olib borilgan tadqiqotlar asosida quyidagi muhim natijalarga erishildi:

1. Yorug'lik diodlarining nurlanish jarayonlarini modellashtirishning yangi usuli taklif etildi, bu usul yorug'lik diodi qurilmalarining texnik tavsiflari asosida ularning chiqish (spektral va fazoviy) parametrlarini hisobga olish imkonini beradi;

2. Ilk bor yorug'lik diodlari bilan optik damlanadigan lazerlarning simulyatsiya modellari Monte-Karlo foton yo'lini kuzatish usuli asosida ishlab chiqildi va ular fazoga bog'liq tezlik tenglamalari bilan birgalikda yorug'lik diodlari bilan optik damlash, yorug'lik qaytishi, sinishi, yutilishi jarayonlarini, shuningdek, faol muhitdagi temperatura taqsimotini baholash imkonini beradi;

3. Yorug'lik diodi nurlanish energiyasini faol muhitga samarali o'tkazish mexanizmlari tahlil qilindi va turli lazer kvantron konfiguratsiyalari (tekis va egrilangan yuzali) baholandi. Taklif etilgan konfiguratsiyalar eksperimental natijalarga nisbatan differensial samaradorlikni 1.23 barobar va optik samaradorlikni 1.58 barobar oshirishi mumkinligi ko'rsatildi;

4. Yorug'lik diodi yordamida optik damlanadigan neodim qo'shilgan kristallarning imkoniyatlari, xususan, Nd:KGW ning imkoniyatlari simulyatsion tadqiqotlar orqali baholandi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, Nd:KGW yutilish samaradorligida Nd:YAG dan ustun (mos ravishda 66.2% va 37.1%) va yuqori differensial samaradorlikni ko'rsatdi (mos ravishda 17.9% va 12.1%). Nd:KGW qisqaroq fluoressensiya yashash vaqti va past kvant chiqish samaradorligi sabab uning bo'sag'a optik damlash quvvati nisbatan yuqoriroq bo'ldi. Biroq, ushbu ko'rsatkich Nd:YAG nikiga yaqin bo'lib, yuqori quvvatli yorug'lik diodi yordamida optik damlanadigan Nd:KGW lazerlarga erishish mumkinligini ko'rsatadi;

5. Yorug'lik diodi nurlanishining temperaturaga bog'liq spektral siljishi faol muhitning yutilish xususiyatlariga ta'siri raqamli o'rganildi. Ko'k yorug'lik diodi nurlanishidagi 3-5 nm spektral siljish yutilish samaradorligini 5% dan ko'proqqa kamaytirishi mumkinligi aniqlandi;

6. Monte-Karlo fotonlarning yo'lini kuzatish modellashtirish usulidan foydalanib, ko'k yorug'lik diodlari yordamida ko'ndalang optik damlanadigan Ce:Nd:YAG lazerlari tadqiq qilindi. Tadqiqot natijalari Ce:Nd:YAG lazeri uchun 10% optik samaradorlik bilan 30 W dan ortiq lazer chiqish quvvatiga erishish imkoniyatini ko'rsatdi.

**SCIENTIFIC COUNCIL ON AWARDING OF SCIENTIFIC DEGREES PhD.03/30.09.2020.FM.55.04 OF URGENCH STATE UNIVERSITY NAMED AFTER ABU RAYHAN BIRUNI**

**INSTITUTE OF ION-PLASMA AND LASER TECHNOLOGIES**

**SHERMATOVA FERUZA ABDURASHID QIZI**

# LED-PUMPED NEODYMIUM LASERS

**01.04.11– Laser physics**

**ABSTRACT**
**of the dissertation for the doctor of philosophy (PhD) on physical and mathematical sciences**

**Urgench– 2025**

**The theme of doctor of philosophy (PhD) dissertation was registered at the Supreme Attestation Commission at the Ministry of Higher Education Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan under number B2024.3.PhD/FM1163.**

The dissertation has been prepared at the Institute of Ion-plasma and laser technologies named after U.A.Arifov.

The abstract of the dissertation in three languages (Uzbek, English, Russian (resume)) has been posted on the website of the Scientific Council (www.urdu.uz) and on Information-educational portal «ZiyoNet» (www.ziyonet.uz).

| | |
|---|---|
| **Scientific supervisor:** | **Payziyev Shermakhamat Daliyevich**<br>doctor of physical and mathematical sciences, professor |
| **Official opponents:** | **Boltaev Ganjaboy Sapaevich**<br>doctor of physical and mathematical sciences, senior researcher |
| | **Eshchanov Bakhodir Khudayberganovich**<br>doctor of physical and mathematical sciences, professor |
| **Leading organization:** | **Samarkand state university named after Sharof Rashidov** |

The defense will take place on « 15 » May 2025 at 14[00] at the meeting of the Scientific Council number PhD.03/30.09.2020.FM.55.04 at Urgench State University. (Address: 14 Kh. Olimjan str., Urgench city, 220100, Uzbekistan, Phone.: (99862)224-66-11, fax: (99862)224-67-00.)

The PhD dissertation is can be looked through in Information-resource centre at Urgench state university (is registered №797 (Address: 14 Kh. Olimjan str., Urgench city, 220100, Uzbekistan, Phone.: (99862) 224-66-11, fax: (99862)224-67-00.)

The abstract of the dissertation is sent out on « 7 » 05 2025.
(Mailing report № 5 on « 7 » 05 2025).

**U.O. Kutliev,**
Chairman of the scientific council on award of scientific degree, doctor of physical and mathematical sciences, professor.

**K.R. Yakubov,**
Scientific secretary of scientific council on award of scientific degree, candidate of physical and mathematical sciences, associate professor.

**U.K. Sapaev,**
Chairman of scientific Seminar under Scientific Council on award of scientific degree, doctor of physical and mathematical sciences, dotsent.

## INTRODUCTION (abstract of PhD thesis)

